



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-12>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Садибекова Молдир Сеилхановна СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙ «ГОСУДАРСТВЕННАЯ УСЛУГА» И «ПУБЛИЧНАЯ УСЛУГА» ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА.....	5
2. Камалова Гулноза Абдубаситовна КРУПНАЯ СДЕЛКА ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ И ПРОБЛЕМЫ ПРАВОПРИМЕНЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	15
3. Алиходжаев Комил Кадинович АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	23
4. Хакимова Камола Фаррух кизи ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТОВ И ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ УЗБЕКИСТАНА: БАЛАНС ЭФФЕКТИВНОСТИ И АДВОКАТСКОЙ ТАЙНЫ.....	32
5. Сафаев Мансурбек Илхомжонович ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ТАВСИФИ.....	42
6. Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY, KRIMINOLOGIK HAMDA TERGOV TACTIKASI JIHATLARI (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JK 176-MODDASI MISOLIDA).....	52
7. Ergashev Xudoberdi Rahmatjon o'g'li AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSINI IJRO ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI.....	59
8. Xolmirzayeva Shoxista Arziqul qizi NOQONUNIY MIGRATSIYA VA TRANSMILLIY JINOYATCHILIK: XALQARO HUQUQIY NAMKORLIK MECHANIZMLARINING TAKOMILLASHUVI.....	66
9. Тилеуов Еркинбай Муратбаевич ЁШЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	75
10. Ёкубжонов Алишер Шерзод ўғли ПОНЯТИЕ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ И ВОПРОСЫ ЕЕ ОХРАНЫ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	86
11. Зокиров Сардор Каримжонович МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФУНКЦИИ ЗАЩИТЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВОСУДИЯ.....	95
12. Нурматов Равшан Бегмаматович ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ПРОБАЦИЯСИНИНГ МАЗМУН – МОҲИАТИ.....	102



Xolmirzayeva Shoxista Arziqul qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
E-mail: xolmirzayevashoxista@mail.ru

**NOQONUNIY MIGRATSIYA VA TRANSMILLIY JINOYATCHILIK: XALQARO
HUQUQIY HANKORLIK MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVI**

For citation: Kholmirzaeva Shokhista Arziqul kizi. ILLEGAL MIGRATION AND TRANSNATIONAL CRIME: IMPROVEMENT OF MECHANISMS OF INTERNATIONAL LEGAL COOPERATION. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 12.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509215>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada noqonuniy migratsiya fenomeni global xavf sifatida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonida davlat chegaralarining nisbiy ochiqligi, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik, qurolli mojarolar hamda ekologik inqirozlar noqonuniy migratsiya oqimlarining keskin ortishiga sabab boʻlmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada avvalo noqonuniy migratsiyaning nazariy konseptlari va uni transmilliy xavf sifatida baholashga oid ilmiy yondashuvlar koʻrib chiqiladi. Keyingi bosqichda esa amaliy jihatlar, yaʼni mintaqaviy va xalqaro darajadagi hamkorlik mexanizmlari, davlatlar oʻrtasidagi huquqiy kelishuvlar, migratsiya oqimlarini boshqarish tajribalari hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlar (BMT, XMT, YeI va boshqalar) faoliyati hamda Oʻzbekistonning bu boradagi milliy siyosati alohida eʼtibor markazida boʻladi. Muallif tomonidan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda kompleks yondashuv, davlatlararo axborot almashinuvi, huquqiy bazani mustahkamlash hamda inson huquqlarini taʼminlashga asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Kalit soʻzlar: noqonuniy migratsiya, transmilliy xavf, xalqaro hamkorlik, huquqiy tartibga solish, milliy xavfsizlik.

Холмирзаева Шохиста Арзикуловна,
Докторант Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: xolmirzayevashoxista@mail.ru

**НЕЛЕГАЛЬНАЯ МИГРАЦИЯ И ТРАНСНАЦИОНАЛЬНАЯ
ПРЕСТУПНОСТЬ: СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ
МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВОВОГО СОТРУДНИЧЕСТВА**

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается феномен незаконной миграции как транснациональная угроза в теоретическом и практическом аспектах. В условиях глобализации относительная открытость государственных границ, социально-экономическое неравенство, вооружённые конфликты и экологические кризисы способствуют росту нелегальных миграционных потоков. Вначале анализируются теоретические концепции незаконной миграции и научные подходы к её

оценке как транснациональной угрозы. Далее внимание уделяется практическим аспектам: механизмам регионального и международного сотрудничества, правовым соглашениям между государствами, опыту управления миграционными процессами и существующим проблемам. Отдельное внимание уделяется деятельности международных организаций (ООН, МОТ, ЕС и др.), а также национальной политике Узбекистана. Автор выдвигает предложения по комплексному подходу к противодействию незаконной миграции, включая межгосударственный обмен информацией, укрепление правовой базы и обеспечение прав человека.

Ключевые слова: незаконная миграция, транснациональная угроза, международное сотрудничество, правовое регулирование, национальная безопасность.

Kholmiraeva Shokhista Arziqul kizi,
 PhD Student at Tashkent State University of Law
 E-mail: xolmirzayevashoxista@mail.ru

ILLEGAL MIGRATION AND TRANSNATIONAL CRIME: IMPROVEMENT OF MECHANISMS OF INTERNATIONAL LEGAL COOPERATION

ANNOTATION

This article examines the phenomenon of irregular migration as a transnational threat from both theoretical and practical perspectives. In the context of globalization, the relative openness of state borders, socio-economic inequalities, armed conflicts, and environmental crises contribute to the growth of irregular migration flows. The study first explores theoretical concepts of irregular migration and scholarly approaches to its classification as a transnational threat. It then analyzes practical aspects, including mechanisms of regional and international cooperation, legal agreements between states, migration management practices, and existing challenges. Particular attention is paid to the activities of international organizations (UN, ILO, EU, etc.) and Uzbekistan's national policy in this sphere. The author proposes a comprehensive approach to combating irregular migration based on interstate information exchange, strengthening the legal framework, and safeguarding human rights.

Keywords: irregular migration, transnational threat, international cooperation, legal regulation, national security.

Aytish joizki, so'nggi o'n yilliklarda global migratsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanib xalqaro hamjamiyat oldida yangi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, noqonuniy migratsiya bu jarayonlarning eng murakkab va xavotirli ko'rinishlaridan biri bo'lib, u nafaqat alohida davlatlarning milliy xavfsizligiga, balki mintaqaviy va global barqarorlikka ham tahdid solmoqda. Shu bois ilmiy adabiyotlarda ham, xalqaro huquqiy hujjatlarda ham noqonuniy migratsiya tobora ko'proq transmilliy xavf sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa hozirgi globallashuv sharoitida dunyo hamjamiyati davlatlardagi migratsiya oqimlari bilan bog'liq bo'lgan keskin vaziyatlar yechimini topishga urinishlarini muvofiqlashtirish va bu yo'nalishdagi xalqaro hamkorlikning tashkiliy- huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatiga duch keldi[1]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda taxminan 281 million xalqaro migrantlar mavjud bo'lib, bu umumiy aholining 3,6 foizini tashkil etadi.[2]. Shu raqamdan ham biz migratsiya jarayonining xalqaro doiradagi roli va ahamiyati qanchalik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda endi biz migratsiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lgan noqonuniy migratsiya tushunchasi, mazmuni, shakli, kelib chiqishi va boshqalar xususida to'xtalamiz. Noqonuniy migratsiya tushunchasi ilmiy va maxsus adabiyotlarda turlicha ifodalangani bois hozirgacha uning yagona ta'rifi mavjud emas, Xususan, M.I.Barannikning fikricha , noqonuniy migratsiya – shaxsning o'zga mamlakatga borishi yoki yashash manzilini tark etishi, o'z hududidagi xorijiy fuqarolarni noqonuniy yo'l bilan kiritish , tranzit qilish va qonunga xilof ravishda boshqa mamlakatga chiqishi bilan bog'liq jarayon sifatida tariflaydi[3] Professor V.N.Sumarakov esa , shaxsni chet elga chiqishi va ikkinchi

mamlakat hududida bo'lishi qonuniy asoslarda vujudga kelsada biroq uning mamlakatga qonunga xilof ravishda kirishi ham noqonuniy migratsiya sifatida baholagan[4] Tadqiqotchi B.I.Egamberdiyevning fikriga ko'ra noqonuniy migratsiya O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan Respublika hududiga kirish, bo'lish va undan chiqish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali transit o'tish tartiblarini buzgan holda harakatlanishi sifatida ta'riflagan.[5] . Yuqoridagi ta'riflarga qo'shilgan va ularni umumlashtirgan holda noqonuniy migratsiyaga – muayyan davlat hududiga belgilangan tartiblarga zid ravishda kirish, unda noqonuniy ravishda yashash yoki qonuniy talablarga muvofiq bo'lmagan holda mehnat faoliyatini amalga oshirish deya ta'rif berishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, noqonuniy migratsiya tushunchasi o'zida noqonuniy kirish, noqonuniy mamlakat hududida bo'lish va noqonuniy faoliyat amalga oshirish tushunchalarini birlashtiradi va uning ijtimoiy xavfliligi davlatlarning milliy xavfsizligiga, iqtisodiy barqarorligiga, ijtimoiy tizimlariga va demografik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, noqonuniy migratsiya deganda, shaxslarning tegishli davlat qonunchiligini buzgan holda boshqa davlat hududiga kirishi, u yerda yashashi yoki mehnat faoliyatini amalga oshirishi tushuniladi. Xususan, bu tushuncha quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi: 1) davlat chegarasini viza yoki ruxsatnomasiz kesib o'tish; 2) viza yoki yashash muddati tugagan bo'lsa-da, mamlakatda qolish; 3) qonuniy asosda kirgan bo'lsa-da, belgilangan tartibga zid ravishda faoliyat yuritish; 4) soxta hujjatlar asosida harakat qilish yoki yashashni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda endi biz noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavf sifatida baholanishi xususida to'xtalamiz. Noqonuniy migratsiya zamonaviy xalqaro munosabatlarda eng murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy hodisalardan biri hisoblanadi. U nafaqat alohida davlatlarning milliy xavfsizligiga, balki mintaqaviy va global barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xalqaro huquq nazariyasi va amaliyotida noqonuniy migratsiya transmilliy xavf sifatida talqin qilinmoqda.[6] Shu o'rinda savol tug'iladi. Nima uchun noqonuniy migratsiya transmilliy xavf sifatida baholanadi.

Birinchidan, noqonuniy migratsiyaning transmilliy tabiati uning yagona davlat hududi bilan chegaralanmasligida namoyon bo'ladi. Migratsiya oqimlari ko'pincha bir nechta davlatlar orqali harakatlanadi, bunda “tranzit mamlakatlar” va “manzil mamlakatlar” o'rtasida murakkab aloqalar tizimi vujudga keladi. Shu sababli noqonuniy migratsiya masalasi bir davlat doirasida hal etilishi mumkin emas, balki ko'p tomonlama xalqaro hamkorlikni talab qiladi.[7]

Ikkinchidan, noqonuniy migratsiya xavfsizlik bilan bevosita bog'liqdir. U terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi, giyohvand moddalar kontrabandasi kabi boshqa transmilliy jinoyatlar bilan chirmashib ketgan[1]. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (2000) va uning protokollarida bu masala alohida qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, noqonuniy migratsiya faqat mehnat bozori yoki ijtimoiy masalalar bilan cheklanmay, balki kengroq xalqaro xavfsizlik kontekstida ko'riladi.

Uchinchidan, noqonuniy migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik omili sifatida transmilliy xususiyat kasb etadi. Migrantlarning noqonuniy ravishda joylashishi qabul qiluvchi davlatlarda mehnat bozorida “soya iqtisodiyoti”ni kuchaytiradi, soliq tizimiga zarar yetkazadi, ijtimoiy xizmatlar tizimiga bosimni oshiradi. Shu bilan birga, bunday jarayonlar millatlararo keskinlik va ijtimoiy ziddiyatlarni ham kuchaytirishi mumkin.

To'rtinchidan, transmilliy xavf sifatida baholashning huquqiy asosi xalqaro huquq normalari va davlatlar o'rtasidagi kelishuvlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, 1990-yildagi “Migrant ishchilar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya”da hamda Yevropa Ittifoqining Shengen kelishuvlari va Dublinni tartibga soluvchi hujjatlarida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash xalqaro majburiyat sifatida belgilangan. Bu esa mazkur hodisani xalqaro-huquqiy doirada transmilliy tahdid sifatida mustahkamlaydi. Shunday qilib, noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavf sifatida baholanishi uch asosiy mezon bilan izohlanadi:

Birinchidan, Davlat chegaralaridan o'tuvchi murakkab va ko'p bosqichli jarayon sifatida transmilliylik.

Ikkinchidan, Xavfsizlik, terrorizm va uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy bog'liqligi.

Uchinchidan, Xalqaro huquqiy normalarda bunday tahdid sifatida e'tirof etilishi.

Natijada, noqonuniy migratsiya milliy doiradagi ijtimoiy hodisa emas, balki global xavfsizlik va xalqaro hamkorlikni talab etuvchi transmilliy tahdid sifatida ilmiy asosga ega bo'ladi. Ya'ni, yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, noqonuniy migratsiya ushbu xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan transmilliy xavfdir. Endi esa biz noqonuniy migratsiya natijasida yuzaga keladigan muammolar va ularning oqibatlarini xususida to'xtalamiz.

Birinchidan, noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavfliligi, avvalo, davlatlarning xavfsizligiga tahdid solishida namoyon bo'ladi. Negaki, terrorizm, odm savdosi, narkotik biznesi kabi qabix jinoyatlar aksar hollarda ushbu toifadagi shaxslar tomonidan sodir etilmoqda;

Ikkinchidan, inson huquqlarining qo'pol buzilishi va ushbu toifadagi shaxslarning himoyasiz holatda qolishi ham mazkur masalaning og'riqli tomonidir.

Uchinchidan, mamlakatdagi epidimiologik vaziyatning buziishi va aholining sog'ligini xavfda qolishi ham navbatdagi muammodir. Shu va yana boshqa bir qancha noqonuniy migratsiya bilan bog'liq muammolar mavjud. Shulardan kelib chiqib, davlatlararo hamkorlik masalalarini tahlilini o'rganish asosida noqonuniy migratsiyaga qarshi samarali hamkorlikni rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suramiz va ularni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, davlatlar o'rtasida kordinatsiyalashgan transmilliy hamkorlikni yo'lga qo'yish va institutsional mexanizmlarni kuchaytirish;

Ikkinchidan, xalqaro doirada noqonuniy migratsiya qarshi kurash bo'yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va uni xalqaro amaliyotga joriy etish. Shu o'rinda endi biz O'zbekiston Respublikasining noqonuniy migratsiya sohasidagi qonunchiligi va xalqaro hamkorligi xususida to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Qonunchilikda ushbu masalaga oid asosiy normalar quyidagilarda o'z aksini topgan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – unda shaxsning erkin harakatlanish huquqi, shuningdek, mamlakat xavfsizligini ta'minlash doirasida cheklovlar qo'yish imkoniyati mustahkamlangan[8]. “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi qonun (2020-yil) – migratsiya oqimlarini nazorat qilish va statistik ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. “Xorijga chiqish, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining kirishi va chiqishi tartibi to'g'risida”gi qonun – fuqarolarning tashqi migratsiyasi tartibini belgilaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksi – noqonuniy migratsiya, noqonuniy chegaradan o'tish, odam savdosi, hujjatlarni qalbakilashtirish kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun (2008-yil, yangi tahriri 2020-yilda) – noqonuniy migratsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim huquqiy asos hisoblanadi.[9] So'nggi yillarda hukumat noqonuniy migratsiyani kamaytirish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, shuningdek, fuqarolarning chet elda qonuniy ishlashi uchun sharoit yaratishga oid qaror va farmonlarni qabul qilmoqda. Masalan, “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolarini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident qarori ham bu boradagi muhim xalqaro hujat hisoblanadi.

Xalqaro-huquqiy hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu borada quyidagilarni alohida qayd etish mumkin. Bilamizki, xalqaro darajada noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning bosh koordinatori sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyat yuritadi. Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xalqaro doirada ushbu jarayonni xalqaro miqyosda tartibga solish, noqonuniy migratsiya oqibatlarini kamaytirish va migrantlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Xususan, BMT tomonidan migratsiya masalalariga oid munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy universal xususiyatga ega bo'lgan xalqaro hujjatlarning asosiysi bu 1948- yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hisoblanadi. Uning 1- maddasida barcha insonlarning jinsi, irqi, millati, tili, dini va e'tiqodi kelib chiqish mavqei va boshqalardan qat'iy nazar

qonun oldida tengligi belgilangan bo‘lib, ularning bir davlat hududidan boshqasiga erkin harakatlanish huquqi kafolatlangan.[10]. BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi” va uning “Insonlarni, ayniqsa ayollar va bolalarni noqonuniy tarzda olib o‘tishga qarshi qo‘shimcha protokollari” bu borada asosiy xalqaro huquqiy tayanch hisoblanadi. Noqonuniy migratsiya zamonaviy xalqaro munosabatlarda inson xavfsizligi, milliy suverenitet va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi murakkab transmilliy hodisa sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu jarayonni boshqarish va unga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikning eng yirik maydoni — bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu tizim doirasida faol ishtirok etib, migratsiya siyosatini xalqaro huquqiy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida izchil siyosat yuritib kelmoqda.

1. BMTning noqonuniy migratsiyaga qarshi siyosati

BMT doirasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish inson huquqlarini himoya qilish, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash va barqaror rivojlanishni ta‘minlash bilan chambarchas bog‘langan. Tashkilotning asosiy huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasi (Palermo konvensiyasi, 2000-yil);

Inson savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qo‘shimcha protokol (2000-yil);

Migrantlarni noqonuniy yo‘llar bilan olib o‘tishga qarshi protokol (2000-yil);

Xalqaro mehnat migratsiyasi to‘g‘risidagi 1990-yilgi Konvensiya – “Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a‘zolarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”.

Mazkur xalqaro hujjatlar O‘zbekistonning milliy qonunchiligini modernizatsiya qilishda, xususan, “Aholining bandligi to‘g‘risida”gi qonun, “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun hamda Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini takomillashtirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekistonning BMT tizimidagi hamkorlik yo‘nalishlari

O‘zbekiston BMTning quyidagi institutlari va dasturlari bilan faol hamkorlik qiladi: BMTning Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi (UNHCR) – mintaqada majburiy migratsiya oqimlarini monitoring qilish va muhojirlarni huquqiy himoya qilish bo‘yicha qo‘shma loyihalar; Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) – noqonuniy migratsiya, odam savdosi va xavfli migratsiya yo‘nalishlariga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston bilan 2003-yildan buyon hamkorlik qiladi; BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) – O‘zbekiston hukumati bilan birgalikda “Migratsiya boshqaruvi va mehnat resurslari mobilizatsiyasi” dasturini amalga oshiradi; BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (UNODC) – transmilliy jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi qo‘shma treninglar, seminarlar va texnik yordam dasturlarini olib boradi.

3. Amaliy natijalar

O‘zbekiston BMT bilan hamkorlikda so‘nggi yillarda quyidagi amaliy yutuqlarga erishdi:

2018-yilda Global migratsiya paktini qo‘llab-quvvatlash bayonotiga qo‘shildi;

2020–2024-yillar uchun IOM bilan hamkorlik dasturi doirasida “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya” loyihasi amalga oshirildi;

Odam savdosiga qarshi kurashish milliy komissiyasi faoliyati BMTning xalqaro standartlariga moslashtirildi;

2022-yilda Toshkentda BMT va IOMning Markaziy Osiyo migratsiya bo‘yicha mintaqaviy forumi o‘tkazilib, migratsiya xavfsizligi sohasida hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qildi.

4. Muammolar va istiqbollar

BMT doirasida hamkorlikning ijobiy natijalariga qaramay, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda:

Migratsiya jarayonlari bo‘yicha milliy statistik tizimlarning BMT standartlariga to‘liq mos emasligi;

Noqonuniy migratsiya oqimlarini chegaralangan texnik imkoniyatlar sababli samarali nazorat qila olmaslik;

Ayrim xalqaro majburiyatlarni milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilinmaganligi.

Kelgusida O'zbekiston quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni yanada kengaytirishni rejalashtirmoqda:

BMT doirasida mintaqaviy migratsiya monitoring markazini tashkil etish;

Global Migratsiya Maqsadlari (GCM) ijrosini milliy darajada amalga oshirish;

O'zbekistonning BMT bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishdagi hamkorligi xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va migratsiya jarayonlarini tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Bu hamkorlik nafaqat milliy migratsiya siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish, balki Markaziy Osiyoda barqaror va xavfsiz migratsiya tizimini shakllantirish uchun ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Shuningdek, BMT tarkibidagi Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) migratsiyani tartibga solish, noqonuniy migratsiyani kamaytirish, qayta integratsiya dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. 2016-yildan boshlab IOM BMT tizimining to'laqonli a'zosi sifatida migratsiya masalalarida institutsional muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi BMT doirasida: O'zbekiston BMTning odam savdosi, migratsiya va inson huquqlari bo'yicha qator xalqaro konvensiyalariga qo'shilgan. Jumladan, 2003-yilda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya va uning Odam savdosiga qarshi qo'shimcha protokolini ratifikatsiya qilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT): O'zbekiston XMTning asosiy konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan, lekin hozircha Migrant ishchilar to'g'risidagi 143-sonli Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan. Shu bilan birga, migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy strategiyalar ishlab chiqmoqda. MDH doirasida: O'zbekiston MDH davlatlari bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kelishuvlar asosida hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik chegaralarni qo'riqlash, ma'lumot almashish va qo'shma operatsiyalar o'tkazishni nazarda tutadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT): tashkilot doirasida transmilliy jinoyatchilik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma dasturlar amalga oshiriladi. Noqonuniy migratsiya zamonaviy davrda xalqaro xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va demografik siyosatga ta'sir etuvchi eng dolzarb transmilliy muammolardan biridir. Ushbu jarayon, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro chegaralarning ochiqligi, iqtisodiy nomutanosiblik va mehnat migratsiyasining yuqori darajada kechayotgani sababli jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShXT) doirasida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikni strategik yo'nalishlardan biri sifatida qarab keladi.

1. ShXTning migratsiya sohasidagi siyosati va institutsional asoslari

ShHT 2001-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi mintaqada xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlashdir. Tashkilotning mintaqaviy xavfsizlik strukturalari, jumladan, Terrorizmga, ekstremizmga va separatizmga qarshi kurashish mintaqaviy tuzilmasi (RATS) migratsiya bilan bog'liq transmilliy jinoyatlarga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. ShHT doirasida qabul qilingan 2005-yilgi "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya", shuningdek transmilliy jinoyatchilik, giyohvandlik savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha 2010–2025-yillarga mo'ljallangan strategik dasturlar O'zbekiston uchun ham muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

2. O'zbekistonning ShXT doirasidagi hamkorlik mexanizmlari

O'zbekiston ShXT a'zosi sifatida quyidagi yo'nalishlarda faol hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda: Axborot almashinuvi tizimi: noqonuniy migratsiya yo'nalishlari, soxta hujjatlar, jinoyat tarmoqlari va odam savdosi bilan bog'liq ma'lumotlarni almashish orqali mintaqaviy xavfsizlikni kuchaytirish. Qo'shma operatsiyalar: ShXT doirasida "Solidaritet", "Poyezd", "Chegara" kabi maxsus operatsiyalar o'tkazilib, migratsiya va transmilliy jinoyatchilikka qarshi qo'shma amaliyotlar tashkil etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida hamkorlik: O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati (hozirgi DXX) va ShHT RATS idorasi o'rtasida hamkorlik memorandumini mavjud. Kadrlar tayyorlash va tajriba almashish: O'zbekiston vakillari ShXT Akademiyasi va xavfsizlik markazlarida noqonuniy migratsiya va chegara nazoratini boshqarish bo'yicha malaka oshirish dasturlarida qatnashadilar.

3. Hamkorlik samaradorligi va mavjud muammolar

So‘nggi yillarda ShXT doirasida o‘tkazilgan monitoringlar natijasida noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar sonining kamayishi kuzatilmoqda. O‘zbekiston hududida noqonuniy yashovchi xorijiy fuqarolarni aniqlash va deportatsiya qilish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar samarali natija bergan. Biroq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda:

ShXT davlatlari o‘rtasida migratsiya statistikasi va axborot bazalarining uyg‘unlashtirilmaganligi;

Huquqiy asoslarning turlicha talqini, ya‘ni davlatlarning ichki qonunchiligidagi farqlar;

Mintaqaviy chegaralarda infratuzilmaning yetarli emasligi va nazorat tizimlarining eskirganligi.

4. O‘zbekistonning istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlari

O‘zbekiston ShXT doirasidagi hamkorlikni quyidagi yo‘nalishlarda yanada kengaytirishni maqsad qilgan:

ShHT doirasida migratsiya bo‘yicha yagona axborot tizimini yaratish;

Migratsiya xavfsizligi bo‘yicha qo‘shma monitoring markazini tashkil etish;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida tezkor javob berish mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ShHT–BMT hamkorligini kuchaytirish orqali xalqaro tajribalarni joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, xalqaro huquq tamoyillariga asoslanib, migratsiya jarayonlarini boshqarish va noqonuniy migratsiyani kamaytirish maqsadida qator davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar imzolagan. Ushbu shartnomalar xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, chegara xavfsizligini ta‘minlash hamda fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan.

1. Ikki tomonlama hamkorlikning huquqiy asoslari

O‘zbekistonning migratsiya sohasidagi ikki tomonlama shartnomalari xalqaro huquqning asosiy tamoyillari – davlat suvereniteti, inson huquqlarini hurmat qilish va o‘zaro manfaatdorlik prinsiplari asosida shakllangan. Bunday hujjatlar, asosan, quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Fuqarolarning qonuniy migratsiyasini tartibga solish;

Noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashish;

Deportatsiya va qaytarish (readmissiya) tartibini belgilash;

Mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish;

Axborot almashinuvi va qo‘shma nazorat tizimlarini yo‘lga qo‘yish.

2. O‘zbekistonning ayrim davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalari

2.1. Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida 2007-yilda “Fuqarolarning vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirishi va ularning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi bitim imzolangan. Mazkur hujjat migrantlarning huquqiy maqomini belgilaydi, ularning huquqlarini himoya qilish va noqonuniy mehnat faoliyatining oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, 2021-yilda imzolangan O‘zbekiston-Rossiya o‘rtasidagi migratsiya siyosati bo‘yicha yo‘l xaritasi noqonuniy migratsiya va soxta hujjatlar muammosiga qarshi hamkorlikni yanada kuchaytirgan.

2.2. Qozog‘iston Respublikasi bilan hamkorlik

2006-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida “Noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida” ikki tomonlama bitim imzolangan. Unga ko‘ra, tomonlar noqonuniy migratsiya oqimlarini monitoring qilish, chegaralar orqali noqonuniy o‘tish holatlarini aniqlash, shuningdek, noqonuniy migrantlarni o‘z vataniga qaytarish (readmissiya) mexanizmini joriy etish bo‘yicha kelishib olganlar.

2.3. Qirg‘iziston Respublikasi bilan hamkorlik

2017-yilda O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida “Fuqarolarning o‘zaro safarlari, yashash tartibi va migratsiya jarayonlarini tartibga solish to‘g‘risida” bitim imzolangan. Ushbu hujjat ikki davlat o‘rtasida noqonuniy migratsiyani kamaytirish, chegara punktlarida nazoratni kuchaytirish va ma‘lumot almashinuvi tizimini yaxshilashni nazarda tutadi.

2.4. Tojikiston Respublikasi bilan hamkorlik

2018-yilda imzolangan “O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida migratsiya sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi hukumatlararo bitim migratsiya oqimlarini qonuniylashtirish va noqonuniy migratsiyani kamaytirishga qaratilgan. Tomonlar migratsiya xizmatlari o‘rtasida axborot almashinuvi, noqonuniy migrantlarni aniqlash va qaytarish mexanizmini joriy etish bo‘yicha kelishuvga erishgan.

2.5. Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlik

O‘zbekiston Janubiy Koreya bilan mehnat migratsiyasi bo‘yicha E-9 vizalar tizimi asosida rasmiy kvotalar orqali fuqarolarni yuboradi. Ushbu tizim noqonuniy mehnat migratsiyasining oldini olish, shuningdek, migratsiya jarayonini shaffof qilishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. 2022-yilda tomonlar o‘rtasida “Migratsiya sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida” yangi memorandum imzolangan.

2.6. Turkiya Respublikasi bilan hamkorlik

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida 2017-yilda “Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish hamda fuqarolarni qaytarish (readmissiya) to‘g‘risida” bitim imzolangan. Mazkur hujjatga ko‘ra, tomonlar noqonuniy migrantlarni o‘zaro qaytarish, chegara xavfsizligini mustahkamlash va ma‘lumot almashish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish majburiyatini olgan. Ushbu ikki tomonlama shartnomalar asosida:

Noqonuniy migrantlarni aniqlash va deportatsiya qilish mexanizmlari soddalashtirildi;

Mehnat migrantlarini huquqiy himoya qilish bo‘yicha qo‘shma komissiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi;

O‘zbekiston hududida noqonuniy yashayotgan xorijiy fuqarolarni qaytarish jarayonlari tezlashtirildi;

Migratsiya xizmatlari o‘rtasida ma‘lumot almashish va hujjat tekshiruvi bo‘yicha raqamli platformalar joriy etilmoqda. O‘zbekistonning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ikki tomonlama shartnomalari mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini ta‘minlash va migratsiya jarayonlarini qonuniylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar O‘zbekistonning xalqaro migratsiya siyosatini izchil, barqaror va xalqaro huquq tamoyillariga mos tarzda shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavf sifatida o‘rganilishi nazariy va amaliy jihatdan uning murakkab ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi. Nazariy nuqtayi nazardan, u milliy chegaralardan chiqib ketuvchi, xalqaro huquqiy normalar bilan tartibga solinishni talab qiluvchi global hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy tahlil esa, bunday jarayonning davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va huquqiy tartibotga bevosita ta‘sirini ko‘rsatadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Milliy xavfsizlik tizimi. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va Texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi.-T.: Akademiya. 2014. 190- b. (National Security System. Team of Authors. Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan. Committee for Coordination of the Development of Science and Technology under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.-T.: Academy. 2014. 190p.)
2. Mehnat migratsiyasi bo‘yicha xalqaro hamkorlik masalalari. Oriental Renaissance : Innovative, educational, natural and social sciences 5(2)Feb., 2025. (Issues of international cooperation on labor migration. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 5(2)Feb., 2025.) www.oriens.uz .:
3. Баранник М.И. Криминологические и правовые проблемы борьбы с незаконной миграцией. Владивостокский центр по изучению организованной преступности. – Владивосток, 2002. (Barannik, M.I. "Criminological and Legal Issues in Combating Illegal Migration." Vladivostok Center for the Study of Organized Crime. Vladivostok, 2002)
4. Сумароков В.Н. Нелегальная миграция как угроза национальной безопасности российской федерации: понятие, содержание, причины возникновения, направления противодействия

//Transport Business in Russia., №1 2014. (Sumarokov, V.N. "Illegal Migration as a Threat to National Security of the Russian Federation: Concept, Content, Causes, and Countermeasures." Transport Business in Russia, No. 1, 2014)

5. Эгамбердиев Б.И.: Ички ишлар органларининг миграция жараёнларига доир фаолиятини такомиллаштириш. Авто. дисс. ... юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy). Тошкент, 2021. (Egamberdiev B.I.: Improving the activities of internal affairs bodies in relation to migration processes. Thesis. ... Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Doctor of Philosophy). Tashkent, 2021)

6. М. А. Макаров. Организация незаконной миграция. Магистерская диссертация, Красноярск, 2021. (M. A. Makarov. Organization of Illegal Migration. Master's thesis, Krasnoyarsk, 2021.)

7. Sh. A.Jo'rayev. Migratsiya sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati va uni takomillashtirish masalalari. (Sh. A.Juraev. Prosecutor's control over the implementation of legislation in the field of migration and issues of its improvement)

8. O'zbekiton Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni 17.08.2020 O'RQ -633- son. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Amendments and Additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Combating Human Trafficking" dated 17.08.2020 No. O'RQ -633) Lex.uz

9. Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalari. Oriental Renaissance : Innovative, educational, naturaland socil sciences 5(2)Feb., 2025. (Issues of international cooperation on labor migration. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 5(2)Feb., 2025.) www.oriens.uz.

10. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi//https: constitution.uz/uz/pages/humanRights. (Universal Declaration of Human Rights //https: constitution.uz/uz/pages/humanRights.).

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000